

Ўзбекистон Республикаси  
Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат  
Архитектура - Қурилиш Институти

“Қурилишни бошқариш” факультети  
“Касбий таълим” кафедраси



*Дипломлойиҳасининг*  
***ТУШУНТИРИШ ХАТИ***

**Мавзу: Рангтасвирда Шохи-Зинда меъморий обидасини  
тасвирлаш ва уни ўқитиш услуги.**

Кафедра мудири: доц.Рахимов А.Қ.  
Рахбар: доц. Султонова Д.Н.  
Маслаҳатчи: Ўқт. Мелиқулов А.Н.  
Битирувчи: 401- КТ(с) гуруҳи  
талабаси Раджабова Фотима.

**Самарқанд 2013 йил.**

МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ САМАРҚАНД ДАВЛАТ  
АРХИТЕКТУРА ҚУРИЛИШ ИНСТИТУТИ

«Қурилишни бошқариш» факультети  
« Касбий таълим » кафедраси

ТУШУНТИРИШ ХАТИ

Диплом лойҳасининг мавзуси

Рангтасвирда Мохи-Зинда  
меъморий обидасини тасвир-  
лаш ва уни ўқитиш усули.

Диплом лойҳасини

бажарувчи толиб (а) Раҳнабова Ҳотима  
(Ф.И.Ш.)

Кафедра мудири доц. Раҳимов А. Ғ.  
(Ф.И.Ш.)

Раҳбар доц. Султонова Д. Н.  
(Ф.И.Ш.)

Маслаҳатчилар ўқит. Мешкунов А. Н.  
(Ф.И.Ш.)

(Ф.И.Ш.)

Амра  
(Имзо)

А. Ғ.  
(Имзо)

Султонова  
(Имзо)

Мешкунов  
(Имзо)

(Имзо)

Мирзо Улуғбек номидаги Самарқанд Давлат Архитектура  
Курилиш Институтини

«Курилишни бошқариш» факултети

«Касбий таълим» кафедраси

ДИПЛОМ ЛОЙИХАСИНИ БАЖАРИШ УЧУН  
ТОПШИРИҚ

Раҳнабова Фотиша

401-КТ(с)

(талабанинг фамилияси, исми, шарифи)

I. Диплом лойиҳасининг мавзуси Рангтасвирда  
Шохи - Зинда меъморий обидасининг тасвири  
ва уни ўқитиш усули.

Институт буйича 2015 йил «29» 12.246 4- сон буйруқ асосида тасдиқланган.

II. Диплом лойиҳасини бажариш учун маълумотлар Рангтасвирда  
меъморий манзара шинаи бўйига келтирилган  
маълумотлар тўплаши.

III. Тушунтириш хатида келтириладиган:

1. Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг таҳлили ва асослаш Тўпланган  
маълумотлар таҳлини қилиб, мавзу асосидаги  
ва дағал шина ретаси тузмага.
2. Диплом лойиҳасининг назарий шакли ишланмалари Рангтасвирда  
меъморий манзара шинаи асосларини айтиш  
назариясини шохлаш.
3. Диплом лойиҳасининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш Мавзуга  
оид эскиз тайёрлаш ва қоракчи ўнгашда шина  
бериш.
4. Ўқув услубий қисми Мавзу бўйига дарс бериш ретасини  
тузиб, 2- соатлик дарснинг меъорий ҳужжатларини  
шинаи қилиш ва жамоатвий ўқитиш технологияла-  
рини бўйлаб дарс ўтиш услубини айтиш.
5. Диплом лойиҳаси бўйича хулоса қисми Диплом шинаи бажариш нараёнида таъбақини  
қилиш шина бўйига шаклий ҳулосаси келтирилади.
6. Фойдаланилган адабиётлар рўйхати Диплом шинаи бажариш  
нараёнида қўшилган адабиётлар рўйхати  
келтирилади.

#### IV. Диплом лойихасининг таркиби ва график қисми:

1. Рангасбирда мейвдорий манзара нақрида бажаришган иш.
2. Мейвдорий манзара ишлари кетиши - кетишги.
3. „Резюме“ методи қўллаб ўттиган 80- минутлик дарс тахсироти.
4. \_\_\_\_\_

#### V. Диплом лойихасининг қисмлари бўйича маслаҳатчилар:

| №  | Диплом иши қисмлари                                           | Бошланиши | Тугалланиши | Маслаҳатчилар | Изоҳ |
|----|---------------------------------------------------------------|-----------|-------------|---------------|------|
| 1. | Мавзу бўйича маълумотлар тўплаш, уларнинг тахлили ва асослаш. | 1.03.13   | 25.03.13    | Султонова Д.  |      |
| 2. | Диплом иши назарий шаклининг ишланмалари.                     | 26.03.13  | 12.04.13    | Султонова Д.  |      |
| 3. | Диплом ишининг амалий шакли бўйича эскизлар бажариш.          | 13.04.13  | 10.05.13    | Меликулов А.  |      |
| 4. | Ўқув услубий қисми.                                           | 11.05.13  | 15.06.13    | Рахмиев А.Б.  |      |

#### Изоҳ:

1. Диплом лойихаси «Низом» га асосан бажарилади.
2. Хар бир топширикда кўрсатилган муддат охирида рахбар ёки маслаҳатчи томонидан имзолангандан кейин навбатдаги қисмини бажаришга кафедра томонидан рухсат берилди.

VI. Топширик берилган сана 1.03.13

VII. Тугалланган диплом лойихасини топшириш санаси 15.06.13

Диплом лойихаси рахбари доц. Султонова Д. Н.   
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Топширик бажариш учун қабул қилинди Рахмиева Ф.   
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

Кафедра мудир доц. Рахмиев А. Б.   
(фамилияси, исми, шарифи) (имзо)

## **MUNDARIJA:**

|                                              |              |
|----------------------------------------------|--------------|
| <b>I. KIRISH.....</b>                        | <b>6-7</b>   |
| <b>II. Mavzuni asoslash.....</b>             | <b>8-10</b>  |
| <b>III. Shoxi-Zinda memoriy obidasi.....</b> | <b>11-17</b> |
| <b>IV. Rangtasvir sanati.....</b>            | <b>18-20</b> |
| <b>V. Ijodiy jarayon ketma-ketligi.....</b>  | <b>21-27</b> |
| <b>VI. Atrof muhit muhofazasi qismi.....</b> | <b>28-32</b> |
| <b>VII. Oquv uslubiy qism.....</b>           | <b>33-43</b> |
| <b>VIII. Xulosa.....</b>                     | <b>44-45</b> |
| <b>IX. Adabiyotlar.....</b>                  | <b>46-47</b> |

# Kirish

## Kirish

Samarqand-xalqimiz millatimiz dovrug'ini butun dunyoga taratgan ming-ming yillik tarixga ega iloxiy maskanimizdir.

“Samarqand - o'tmishi sharaflı, buguni saodatli kelajagi abadiy shahardir”.


Islom Karimov

Samarqand shahrining noyob me'moriy majmualardan biri Shohi-Zinda. U bir necha me'moriy jihatdan uyg'unlashgan binolar majmuasidir.

Bu ansambillar adabiyotda yuqori xavfli imoratlar guruhi, Qusam ibn Abbos maqbarasi guruhi, o'rta qism imoratlar guruhi va quyi imoratlar guruhi deb to'rt shartli guruhga bo'linadi. Mazkur inshootlar eng qadimgi va asosiysi Qusam ibn Abbos sharafiga qurilgan maqbara hisoblanadi. Arxeologik izlanishlar maqbara va unga tutash chillaxonaning XI asrda qurilganini ko'rsatadi.

Respublikamiz mustaqillik etishgandan keyin Shohi-Zinda me'moriy obidasi yanada go'zallashib, ko'zni qamashtiradigan darajaga yetdi.

# **Mavzuni asoslash**



## **Mavzuni asoslash**

O'zining betakrorligi va ulug'vorligi bilan Samarqand me'moriy obidalari orasida Shohi-Zinda ansambli yagona hisoblanadi.

Shohi Zinda ansambli Samarqand va O'rta Osiyo me'morchilik maktabi manzarali va amaliy san'atining rivoji va shakllanishining o'zida mujassam etgan me'moriy obidadir. O'rta Osiyolik kulol ustalarning turli hildagi qoplash usullari (yassi va sizlangan naqshlar, o'ymakorlik) rasm solish elementlarini yaratish kabi ixtirolari Shohi-Zinda ansambli misolida takrorlanmasdir.

Shu sabab bo'lsa kerak, dunyoning turli davlatlaridan kelgan sayyoxlar Shohi - Zinda ansambliga tashrif buyurganda o'z hayratlarini yashira olmaydilar. Mahallaiy aholi orasida esa Shohi-Zinda ansambli muqaddas ziyoratgoh sifatida mashhurdir. Ko'plar Shohi-Zinda ziyoratgohini ruhiy poklanish maskani deb biladi.

Yuqorida takidlab o'tkanimdek o'zining betakrorligi, ajoyib me'moriy yechimlari va moviy gumbazlari bilan Shohi-Zinda ansambli san'at ahli uchun ilxom manbai hisoblanadi. Ayniqsa rassomlar ijodida Shohi-Zinda ansambli o'z-o'rniga ega.

Ana shu tamoillar asnosida hamda rassomlarimiz ijodlaridan ilxomlanib, men ham rahbarim bilan maslahatlashgan holda diplom ishimni bajarishda Shohi-Zinda ansamblini rangtasvirda tasvirlashga qaror qildim.

# **Shohi-Zinda me'moriy obidasi**

## **Shohi-Zinda me'moriy obidasi**

Shohi-Zinda Samarqand shahrining shimoliy sharqiy qismida joylashgan bo'lib, O'rta Osiyoda mashhur me'morchilik ansamblardan biri hisoblanadi.

U maqbara va ibodat qilinadigan bir qancha binolarni o'z ichiga oladi.

Shohi-Zinda (Tirik Shoh) nomi Muhammad payg'ambarning amakivachasi Qusam ibn Abbos qabri haqidagi mashhur fikrlar bilan bog'langan, go'yo u VII asrda Samarqandga arab bosqinlari bilan birga kelganu, islomni targ'ib qilgan: rivoyay va afsonalarning hikoya qilishicha Qusam ibn Abbos dini islom yo'lida, xudoga ishonmaganlarning qolida vafot etgan. Lekin u qoliga o'zining tanasidan judo bo'lgan boshini olganda, quduqqa tushgan va yashashni davom ettiravergan.

Shohi-Zinda ansambli deyarli to'qqiz asr davomida shakllangan, bugungi kunda 20 dan ortiq turli davrlarda tiklangan inshootlarni o'z ichiga oladi.

Kompleksni yo'lakdan kirishda shartli ravishda 3guruhga bo'lish mumkin. "Pastki", "O'rta", "Yuqori"- ularning hammasi bir biriga ark-gumbaz ayvoni bilan bog'langan.

Ansamblning dastlabki inshootlari XI-XII asrlarga tegishli, ulardan faqat poydevor, devor va burchaklarning qismlari saqlanib qolgan. Mavjud inshootlarning asosiy qismi XIV-XV asrlarga mansub. Ansamblda XVI-XIX asrlarda amalga oshirilgan qurilish - ta'mir ishlari uning tuzilishi va badiiy qiyofasini unchalik o'zgartirmagan. Shohi-Zinda ansamblining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan bir guruh inshootlar orasida eng qadimgisi Qusam ibn Abbos kompleksidir. Kompleks o'zida turli davrlarda qurilgan, ammo bir-biri bilan o'zaro bog'langan inshootlarni nomoyon etgan va ansamblning eng qadimgi yodgorligi-Qusam ibn Abbos maqbarasi vobasta tushgan.

Kompleksning “Yuqorisi” guruppasini bir-biriga qaragan uch maqbara tashkil qilgan.

Xo’ja Ahmad maqbarasi (XIV asrning 40-yillari) yo’lakning ijtimoiy qismiga tutashgan. O’ng tomonida joylashgan 1361-yil maqbaralari uni sharqdan chegaralab turgan. Chapdan g’arbiy tomondan XV asr boshlarida Temurning xotini Tuman og’a kompleks barpo qilgan u 3 binoni: maqbara, masjid va hujrani o’z ichiga olgan, 2 ta nomsiz maqbara (XIV-asr oxiri)ning kiraverish davrigina saqlangan.

Shuningdek, Tamgoch Bug’roxon maqbarasi (XI-asr oxiri), Amir Burundi q maqbarasi (XIV-asr oxiri) kabilardir.

“O’rta guruhga kirgan inshootlar XIV asrning so’ngi choragi va XV asrning yarmiga mansub bo’lib, Temurning yaqin qarindoshlari, harbiy va ruhoniyl aslzodalarning nomlari bilan bog’langan.

Chapdan, g’arbga tomondan Temurning jiyani Shodi Mulk og’a (1372-yil)ning peshtoq gumbazli bir xonali sag’anasi ajralib turadi.Uning qarshisida –Temurning singlisi Shirinbeka og’a maqbarasi. Sharqiy tomonda XV asrning o’ziga xos sag’anasi turibdi. U Shartli ravishda “sakkiz qirralik” deb nomlangan.


Shohi-Zinda ansamblining ko’p (40-bosqichli) sonly zinapoya “pastki» gruppaga tegishli XV asrning ikki gumbazli maqbarasi bilan uyg’unlik kasb etadi.


Janubga qaragan ulug’vor peshtoq Mirzo Ulug’bek o’g’li nomidan qurdirgan Abdulaziz Chortog’i (1434-1435-yillar) qurilgan. Unga shimoldan Davlat qushbegi madrasasi 1812-1813-yillarda qurilgan. Uning qarshisidagi ayvonli maschid naqshlar bilan nafis bezatilgan.

Anzaml tarkibidagi 20 dan ortiq inshootlar davlat muhofazasiga olingan.


XIX-XX asrlarda ansamblning yana bir necha binolari barpo etilgan. Zina o’rnida 40-pog’anali g’ishtdan ya’ngi Zina qurilgan.

O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2004-yil 16-iyul qaroriga asos Shohi-Zinda yodgorlik majmuasida katta ko'lamdagi ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.









# **Rangtasvir san'ati**

## **Rangtasvir san'ati.**

Diplom ishini bajarish davomida rangtasvir san'atidan foydalandim. Ana shu sanat turi haqida ma'lumot beraman.

Rangtasvir-tasviriy san'atning bir turi bo'lib, biror qattiq yuzaga rangli ashyolarda masalan, bo'yoqlar yordamida yaratiladigan badiiy asardir. Rangtasvir voqeylikni badiiy tasvirlash va talqin qilish demakdir.

Rangtasvir asarining g'oyaviy mazmuni uning mavzu va syujetida mujassamlashadi. Syujetning rassom rangtasvirning ijoda vositalari (kompozitsiya, rasm, rang, ritm va hokazolar) orqali ro'yobga chiqaradi.

Rangtasvir asarlari asos: (maxsus ishlov berilgan mato, yog'och, qog'oz, karton, shisha metal va hokazolar. Rang qatlami: moybo'yoq, guash, tempera, akvarel, rangli shisha, rangli tosh va hokazolar) ayrim hollarda uni saqlash uchun ustidan berilgan yupqa lok qatlamidan iborat bo'ladi. Rangtasvirning muhim tasviriy va ta'sir vositasi-rang (kolorit) hisoblanadi.

Asar dastlab ijodkor tasavvuri va ongida paydo bo'lgan g'oya qaralamasi tarzida qalam yoki ko'mir qalamda biror yuza, ko'pincha qog'oz va kartonda ishlab olinadi. So'ng shunga mos asos tanlanib unga bajariladigan ishning mohiyatiga ko'ra ishlov beriladi. Shundan so'ng tasvir o'rni belgilanib, rasm ishlanadi. Rang berishda esa asta suyultirilgan rang bilan boshlab, ko'p qatlamli yoki kerak tangni bir quyishda bir qatlamli bajarish mumkin. Rangtasvir asarlari o'zining ishlanishi o'rni, mazmuni, bajaradigan vazifasi, ishlanish uslubi va ko'rnishiga qarab monumental, bezak, dastgoh san'ati, dekoratsiya, miniatyure va boshqalarga bo'linadi. Tasvir mavzusi va mazmun yo'nalishiga qarab bir qator janrlarga ajratiladi.

Animalistika, Tarixiy janr, maishiy janr, Batal janr, portret janri manzara va natyurmort janri va boshqalar.

Men tanlagan mavzu ya'ni Shohi-Zinda me'moriy obidasini rangtasvirda ifodalash uchun rang tasvirning manzara janridan

foydalaniladi. Chunki tanlangan obyekt shahar manzarasi bilan uyg'unlashib ketgan.

Diplom ishining mavzusida ham aynan shu uyg'unlikni tasvirlash asosiy maqsad qilib, olingan.

Mavzuga asosan, o'zbek rangtasvir san'ati haqida ham qisqacha ma'lumot berib o'tsam.

O'zbekistonda rangtasvir san'ati qadimdan mavjud bo'lgan. Uning ilk naminalari ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. (Zarautsoy rasmlari). Miloddan avvalgi 1-ming yillikning oxiri va milodiy 1-ming yillik boshlarida rangtasvir o'zining gullagan davrini boshidan kechirgan (Afrosiyob, Uraotsha, Bolaliktepa, Tuproqqala va boshqalardagi devoriy rasmlar). Bu davrda rangtasviri yassi bezak yo'nalishida mahalliy (local) ranglarda bajarilgan.

Amir Temur va Temuriylar davrida monumental rangtasvir(devoriy rassomlik, mozaika) bilan birga miniatyura san'ati rivojlangan. Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqalarning asarlari dunyoga keldi.

19-asr o'rtalaridan boshlab Turkistonda dastgoh san'ati shakllandi va 20 asrda o'zbek milliy rangtasvir maktabi yaratildi.

Rangtasvirning hamma tur va jandlarida asrlar yaratildi. Miniatyura, vitraj san'ati qayta tiklandi.

Bugungu kunda o'zbek rangtasvir san'ati jahon hamjamiyati bilan bir qatorda rivojlanmoqda. G'oyaviy klassik rivoji ustida rassomlar izlanmoqda, mehnat qilmoqda.

# **Ijodiy jarayon ketma ketligi**


## Ijodiy jarayon


Avvalambor diplom ishini bajarish uchun mavzu tanlandi. Mavzu “Shohi-Zinda” me’moriy obirasini rangtasvirda tasvirlash. Mavzuga asosan Shohi-Zinda me’moriy ibodani rangtasvirda tasvirlash talab qilinadi.


Birinchi navbatda tasvirlanayotgan obyekt o’rganildi. Undan keyin me’moriy obidaning turli tomonlaridan bir necha fotonusxa olindi. Bunga sabab, boshlovchi rassom sifatida har bir rassom o’z faoliyatini avval biror bir taniqli rangtasvir asaridan nusxa ko’chirishdan boshlaydi. Xullas fotosuratlardan eng maquli tanlanadi. Bundan keyin ijodiy jarayon ketma-ketligi quyidagicha kechdi.


- Kerakli o’lchamda podramnik yasab olindi.
- Podramnikga mato (surf) tarang qilib tortildi.
- Tortilgan mato yuzasi “PVA” kleyi va emulsiya yordamida gruntlandi.
- Fotonusxa 20 sm X 30 sm o’lchamda rangli printerda kattalashtirib chiqarib olindi.
- Fotonusxaga qarab tayyor tasvir yuzasiga asar qalamtasviri ishlandi.
- Tayyor bo’lgan qalamtasvirga guash va emulsiya aralashmasidan tashkil topgan rangli qorishma yordamida rang berildi.
- Rang berishda har xil kattalikdagi mo’yqalamlardan foydalanildi.
- Barcha ko’zda tutilgan talablar bajarilgach, rangtasvir asari yakunlandi.
- Yakunlangan asar xoshiya (ramka) bilan bezatildi.


Xoshiya romb, tillo rang bo’yoq yordamida katta mo’yqalam bilan bo’yalib ijodiy jarayonga yakun yasaldi.











# **Atrof muhit muxofazasi qismi**

## Kirish

Tabiat o'ziga xos murakkab tizim bo'lib, inson va jamiyat uning xosilasidir. Inson tabiatdan havo, suv, oziq-ovqat mineral, yonilg'i xom ashyolarini qondiradi hamda hayot faoliyati davomida unga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Natijada tabiat uchun bo'lgan yod tangi obyektlar vujudga keladi. Bular: shahar va qishloqlar, zavodlar, fabrikalar, yo'llar kanallar, suv omborlari, qishloq, xo'jalik yerlari va boshqalardir. Inson qalb-zakovati mehnati tufayli yuzaga kelgan bunday antropogen lanshaftlar atrof-muhitiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yer yuzida aholi sonining keskin o'zgarib borishi, fan-texnikaning shaddatli taraqqiyoti, mamlakatlar hududida tabiiy resurslarda imkon qadar ko'proq foydalanish va shu yo'l bilan jamiyat taraqqiyotini tezlashtirishni taqazo qiladi. Natijada tabiat va inson o'rtasida o'zaro munosabat qonunlari buziladi. Bu qonunlarning buzilishi esa ertami kechmi ekologik inqirozga olib keladi.

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik xolat ko'pchilikni bizdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof muhini muhofaza qilish va muvjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Hozirgi ekologik inqirozning sababchisi va o'z aql-zakovati bilan shu inqirozni bartaraf etuvchi-bu inson ekanligi ma'lum. Atrof-muhitni ifloslanishidan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab tergap foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlardan qat'iy nazar ularning ekologik savodxonlik darajasiga, ekologik ma'daniyatiga bog'liq. Mustaqil Respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish asoslari" fanini o'qitish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, hozirgi kunda umum ta'lim maktablarda, litsey, ixtisoslashtirilgan o'quv yurtlarida va oily o'quv yurtlarida ekologiya fani o'qitilmoqda. Bu xol ta'limning har bir bosqichiga mos keladigan darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratishni taqazo etadi. Ekologiya fani

nihoyatda ko'p tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Masalani bioekologiya, gioekologiya, ijtimoiy ekologiya, inson ekologiyasi va hokazo. Hozirga qadar ekologiya bo'yicha yaratilgan darslik yoki o'quv qo'llanma shu sohaga moslab yozilgan.

Shuning uchun mavjud darslik va o'quv qo'llanmalari aynan shu soha bo'yicha ta'lim dargohi yoki shu soha bilan shug'ullanivchi mutaxassislar uchun ayni muddao.

Ushbu darslik mualliflarining bir necha yillar davomida turli ta'lim yo'nalishlari, bo'yicha bilim oluvchi talabalarga ekologiya fanidan dars berish jarayonlarda to'plangan materiallari asosida tayyorlandi. Uni yozish davomida Respublikamizda chop etilgan ekologiyaga doir barcha darslik va o'quv qo'llanmalardan, shuningdek chet el adabiyotlaridan foydalanildi. Darslikda ekologiyaning barcha tarmoqlari va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslarini yaratib berishga harakat qilingan.

Darslik ekologiyaning umumiy masalalari, xavo, suv, yer, biosferaning ifloslanishi, ifloslantirishi manba va moddalari, ifloslanish oqibatlari ularni bartaraf qilish chora tadbirlari, atrof muhit muhofazasini tashkil etishning huquqiy asoslari, xalqaro ekologik hamkorlik, ekologik ta'lim-tarbiya masalalari yoritildi.

Har bir mavzu mohiyatini ochib berishda avval dunyo bo'yicha ma'lumotlar berilib so'ngra respublikamizdagi ahvol talqin qilingan. Shuningdek darslikda fransiyalik olim Fransual Ramadening "Ekologiya asoslari" nomli kitobidan o'zbek tiliga tarjima qilingan ma'lumot va turli chizmalardan keng foydalanilgan.

Tabiat deyilganda biz o'zimizni o'rab turgan xavo, suv, tuproq tog' jinslari, o'simlik va xayvonotdan iborat murakkab moddiy borliqni ko'z ongimizga keltiramiz. U insonning barcha moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiruvchi yagona manba hisoblanadi. Bu jihatdan uni onaga qiyoslab, bejis "Ona-tabiat" deb ardoqlamaydi. Hozir inson aql zakovati tufayli yerdan bir necha milliard yorubg'lik yiliga keladigan teng keladigan uzoqliklarni "ko'rayotgan" bo'lsa ham bizga ma'lum bo'lgan olamda birorta ham yer sayyorasining tabiatga o'xshash tabiat

va hayot shakli mavjudligi aniqlanmagan. Yer tabiatini yaqqolroq tasavvur qilish oson bo'lishi uchun quyidagi ma'lumotlarni keltiramiz. Hozirgi ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, biz bilgan olam (koinot) bir-biridan bir necha yorug'lik yiliga teng masofalarda joylashgan bir necha gallaktikalardan tashkil topgan. Bu gallaktikalarni har biri necha necha milliard yulduzlardan va boshqa fazofiy unsurlardan iborat ulkan tuzulmalardir. Jumladan, bizning quyoshimiz joylashgan "somon yo'li" gallaktikasida 150 milliarddan ziyod turli o'lchamlardagi yulduzlar bo'lib, quyosh undagi o'rtacha kattalikdagi yulduzlardan biri hisoblanadi, xolos. Quyosh atrofidagi 9 ta sayyora va boshqa fazoviy jismlar birgalikda quyosh sistemasini tashkil etadi. Bu sistemaning diametri 12 milliard kilometrga teng bo'lib, umumiy massasining 98-99 foizi quyoshda jamlangan. Bizning yer esa mana shu sistemaning o'rtacha kattalikdagi bitta sayyorasidir.

Tabiatning inson va jamiyat uchun ahamiyati juda katta. Uni inson ehtiyojini qondirish jihatlariga qarab, iqtisodiy, ilmiy, sog'lomlashtirish, tarbiyaviy va esatetik turlarga bo'linadi.

Iqtisodiy-ahamiyati deyilganda, undagi resusrlardan (havo, tuproq, minerallar, o'simlik va xayvonlar) turli ishlab chiqarish jarayonlarni tashkil etishda asosiy moddiy manba sifatida foydalanish tushuniladi.

Ilmiy-ahamiyati shu bilan belgilanadiki, insonning barcha bilimlari negizida tabiat va undagi turli jarayonlarni kuzatish, o'rganish, tahlil etish va amalliy xulosalar qilish yotadi. Sog'lomlashtirish-ahamiyati deyilganda, sof tabiiy unsurlar musaffo havo, toza suv, unumdor tuproq bahavo o'rmon)ning va shifo beruvchi tabiiy modda va jarayonlarni inson salomatligiga ijobiy ta'siri tushuniladi. Bundan ming yil qariyb avval yashab o'tgan buyuk o'tmishdoshimiz Abu Ali Ibn Sino "odamlar salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'langan deganda, tabiatni aynan shu xususiyatini nazarda tutgan bo'lishiga shubha qilmasa ham bo'ladi.

Tarbiyaviy-ahamiyati deyilganda, sof haqiqiy tabiatning kishilarda olijanoblik, xushfellik, bag'rikenglik, vatanparvarlik, ulug'vorlik

muloyimlik kabi ahloqiy hislatlarni uyg'otish va shakllantirish xususiyatlari tushuniladi. Tabiat qo'ynida yoki tez-tez u bilan birga bo'lish insonlarning kamol topishiga yordam beradi. Jamiyatda kuzatiladigan ruhiy qashshoqlik, loqaydlik qo'pollik, jahldorlik, shavqatsizlik, vahshiylik kabi illatlarning avj olish sabablaridan biri ham kishilarni sun'iy texnogen muhitga tushib, tabiatdan ajralib qolganligidandir.

Tabiatni estetik ahamiyati beqiyosdir. Insondagi barcha go'zallik, mukammallik, musiqa tesviriy san'at, hislari va ularga bo'lgan ehtiyojlarning negizida tabiat yotadi.

# O'quv uslubiy qism

## **MUNDARIJA:**

- 1. Pedagog qanday bo'lishi kerak**
- 2. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari**
- 3. Dars reja matni**
- 4. Darsning turi va mazmuni**
- 5. Darsning borishi**
- 6. Darsning texnologik jarayoni. (“Rezyume” dars o'tish uslubi)**
- 7. Dars o'tish rejasi (80-minutlik dars taqsimoti)**
- 8. Yillik ish dasturi**
- 9. O'qituvchining ma'naviy va ma'rifiy ishlar rejasi**

Pedagog qanday bo'lishi kerak. Inson avvalo harakat qiladi va harakatining yengil bo'lishini keyinchalik shu harakatning bekorga aytilmasligini istaydi. Agar insonda mana shunday go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg'unlashsa, shundan so'ng u o'zida go'zallik fazilat va irodani boshqa kishilarda hosil qilish yo'lini o'rganish kerak.

Lekin buning uchun uning zo'r kuch va qudrat talab qilinadi deydi IX asr mohir pedagogi Abu Nasr Farobiy. Bunday faoliyat bo'lishi jamiyatning eng ishonchli kishisi avlodlarni avlodlar bilan bog'lovchi yetakchi kuch q'qtivuchiga xos va mosdir.

To'g'ri ma'noda o'qituvchi so'zi maxsus tayyorgarlikdan o'tgan. O'qituvchi so'zining ma'nosida bo'lish malaka va ko'nikmalarni tartib toptirayotgan, xahotga murabbiy qiladigan va yo'llaydigan ya'ni pedagogoik faoliyat bilan shug'ullanadigan hamda kishilarni o'qituvchi deb ataydilar. Ma'lumki yosh avlodni maqsadga qaratilgan holda boshqarish va tartib topritish jarayoni bo'lmaganda jamiyat o'z rivojlanishida to'xtab qolar edi.

Pedagog kasbi boshqa kasblardan ko'pgina belgilari bilan farq qiladi. Pedagogning mehnat predmeti odam mehnatining maqsadi insonni qayta o'zgartirishi pedagogning mehnat quroli uning nutqi, tafakkur irodasi, odobi mahorati va boshqa. Pedagogning ma'naviy, siyosiy kasbiy qiyofasiga qo'yiladigan yuksak talablar uni doimo takomillashishiga, to'xtovsiz o'z ustida ishlashga majbur etadi. Pedagog kasbi qiyin, qiyinchiliklari nimada? Eng avvalo tarbiya ta'lim ish natijalari darxol namayon boladi. Bu pedagoglardan katta sabr-matonat, sabr-chidam, toqatni talab qiladi. O'z fanini mukammal bilishi uchun o'qituvchi to'la ijtimoiy hayot bilan yashayotgan, tabiatni, kitobni san'atni va jismoniy chiqishni sevadigan bo'lsa, boshqalarni tarbiya qil oladi va ilmda mukammallikka erisha boradi. O'qituvchi umumiy ifodasiga yuzida bosiqlik o'zini tuta bilishlik, qattiq qo'llik, imo-ishorali, go'zal bo'lish kerak. O'qituvchi talaba yoshlar o'qituvchining nutqiga alohida ziyraklik bilan munosabatda bo'ladi. Qandaydir tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilishi ular oldida kulgi bo'lishga bir xil maromda asoslanmagan nutq ularni zeriktiradi. Baland ovozda dildan

bo'lmagan suhbat ular tomonidan sohta o'zlashtiriladi va o'quvchida ishonchsizlikni ifodalaydi. O'qituvchi nutqini mazmunli, jarangli, aniq, o'quvchilar diqqatini tortadigan fikrlashga davit etadgan va harakatga olib kelishi ammo tartib uyquni keltirmaydigan pedagogik texnikani muvaffaqiyatidan dalolat beradi. Mahoratli o'qituvchilar o'quv faoliyatining meyyorini o'rttirib uzliksiz davom ettirib, o'quvchilarda amaliy ko'nikmani shakllantiradi.

**Zamonaviy o'qitish texnologiyasi.** Kasbiy ta'lim dasturini ishlab chiqish hisobga olinishi lozim. Dasturning mazmuni didaktik prinsiplarga to'la to'kis javob berishi, murakkablikning o'sib borishi hisobga olingan holda va kasbiy ta'limning tanlangan didaktik muayyan izchillikda bayon qilinishi (KT-qurilish KT-san'at) misolida ko'rish mumkin.

Turmush bilan suveren va demokratik davlat tuzib, ozod va obod vatan qurish bilan bog'liq bo'lishi, mehnat obyektlarning tafsila qilinadigan ro'yxati esa ijtimoiy ishlab chiqarish qimmatiga ega bo'lishi tabiiy ilmiy sikldagi umumiy ta'lim fanlari fizika, matematika, ximiya, chizmachilik, rasm rangtasvir va hokazolar bilan bog'lanishini amalga oshirishi. Kursdan kursga o'tish vaqtida o'quv materiallari kasb ta'lim dasturida joylashtirilgan.

Maxsus fan o'qituvchisi

Radjabova Fotima

4 soatga mo'ljallangan

Tasdiqlayman

O'quv ishlar bo'yicha

director o'rinbosari

### **Dars reja matni**

Guruh: 210

Sana: 15.04.13.

Darsning tartib soni: № 2 soatga mo'ljallangan.

Darsning mavzusi: Rangtasvirda manzara ishlash.

Darsning maqsadi: talabalarga manzara ishlashni tushuntirib ko'rsatish.

Ta'limiy: Ishlab chiqarish ta'limi jarayonida talablarning kasbiy malakalarni shakllantirish.

Tarbiyaviy: Talablarni kasbiy malakalarini shakllantirishda uztoz-shogird an'alariga amal qilishga o'rgatish.

Rivojlantiruvchi: Talabalarga individual usulda topshiriq berib, ularni ijodiy qobiliyatini o'stirish.

### **Darsning turi.**

Dars qo'llaniladigan asosiy usullar: REZYUME

Darsning jihozlari: Ushbu darsga taluqli bo'lgan asbob uskunalari, materiallar chizmalar va slaydlar.

### **Darsning mazmuni.**

1. Tashkiliy qism: Talabalar bilan salomlashib, jurnaldagi ro'yxat bo'yicha yo'qlama qilib chiqish.

## **2. O'tilgan dars mavzusini so'rab, mustahkamlash va talabalar bilmini baholash.**

- a) Rangtasvir tarixini bilasizmi?
- b) Rangtasvir so'zining ma'nosini aytib bering?
- c) Rangtasvir necha xil bo'ladi?
- d) Memoriymanzara qanday ishlanadi?

## **3. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar.**

## **4. Yangi mavzuni boshi.**

## **5. O'tilgan mavzu yuzasidan savol-javoblar.**

## **6. Uyga vazifa.**

## **7. Darsni yakunlash.**

### **Darsning borishi.**

#### **Reja:**

1. Memoriy manzara ishlash ketma-ketligida talabalarning kasbiy malakalarni shakllantirish.
2. Manzara ishlashda, grafik ishlarni bajarishda, ustoz-shogird an'analari, ustoz va shogirdning o'zaro mezonlar asosida ish yuritib boorish.
3. Yuqorida o'tilgan dars ketma-ketligi jarayonida talabalar tafakkuri va kasbga qiziqishni oshirib rivojlantirish orqali mavzuga oid plakatlar seryasini yaratish.
4. Eskizlardan foydalanib qog'ozga tushirish.


Ishlab chiqarish kasbiy ta'limi o'sishdan maqsad manbalar mustaqil holda ko'rsatma va tavsiyalarga tayanmasdan kasb-hunar kasbiy xatti harakatlar majmuasini shakllantirishdir. Talabalarga kasbiy ta'lim berish mazmuni deganda shunday bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi tushuniladi, ularni egallash orqali muayyan kasb va malakaga

ega bo'lgan kichik mutaxassis tayyorlash ta'minlanadi. Ishlab chiqarish kasbiy ta'limning asosiy vazifasi-bo'lajak malakali kichik mutaxassislarni muayyan yo'nalish kichik mutaxassislarni muayyan yo'nalish asosida amaliy faoliyat ko'rsatishga tayyorlashdan ya'ni bilimlarni amaliyotga tadbiq etishga o'rgatishdan zarur bo'lgan kasbiy ko'nikma malakalarni shakllantirishdan iborat. Shunday qilib, ishlab chiqarishi kasbiy ta'limning asosiy mohiyati talabalarga tegishli ixtisoslik bo'yicha mehnat jarayonlarini bajarish yo'llari va usullarini o'rganishdan iboratdir. Prezidentimiz amalga oshirilayotgan islohatlar xalqimiz faravon hayot kechirishini va faol ijodiy mehnat qilishi uchun murakkab shart-sharoit yaratishi mintaqamiz va butun dunyoda ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy barqarorlikni ta'minlash maqsadni ko'zda tutadi. Bu muhim maqsad va vazifalarni ro'yobga chiqarishda malakali mutaxassis kadrlar shak - shubhasiz hal qiluvchi ro'l o'ynaydi.

## **Dars o'tishning texnologik jarayoni.**

Mavzu: Shohi-Zinda me'moriy obidasini rangtasvirda tasvirlash va o'qitish

Rezyumi texnologiyasi.



**Dars o'tish rejasi**  
**(80-minutlik dars taqsimoti)**

| <b>№</b> | <b>Dars bosqichi</b>                 | <b>Didaktik jihozlar</b>                  | <b>Mazmun va unga doir harakat</b>                                                                                                                                | <b>Metod (usul)</b>          | <b>Vaqt (minut)</b> |
|----------|--------------------------------------|-------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------|---------------------|
| <b>1</b> | <b>2</b>                             | <b>3</b>                                  | <b>4</b>                                                                                                                                                          | <b>5</b>                     | <b>6</b>            |
| <b>1</b> | Tashkiliy qism                       | Guruh jurnali                             | Salomlashish, davomat tarbiyaviy suhbat                                                                                                                           | Savol-javob                  | 5                   |
| <b>2</b> | Uz vazifani tekshirish va baholash   | Doska, bajargan ish o'zlashtirish varag'i | a) Bajarilgan uy vazifalarni tekshirish baho.<br>b) O'tilgan dars mavzusini mustahkamlash.<br>c) Bilimlarni baholash.                                             | Nazorat taqdimot va munozara | 5<br>10<br>5        |
| <b>3</b> | Motivatsiya                          | Xayotiy usullar                           | Qiziqarli o'yin (hikoya)                                                                                                                                          | Suhbat                       | 5                   |
| <b>4</b> | Yangi mavzu bayoni                   | Guruhlarga ajratish                       | O'qituvchi talabalarning soniga qarab 3-5-kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi                                                                             | Rezyume                      | 5                   |
| <b>5</b> | Mavzuni tushuntirish                 | Tarqatma material                         | O'qituvchi talabalarni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilishi tartibi bilan tanishtirdi, har bir guruhga qog'ozning yuqori qismida mavzu bo'lgan xulosa           | Tanishuv                     | 5                   |
| <b>6</b> | Mavzuni mustahkamlash uchun mashqlar | Topshiriq kartochkalari                   | Har bir guruh a'zosi mavzuga asosan o'z fikrlarini yozma bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqarish. | Mustaqil ishlash             | 15                  |
| <b>7</b> | Mavzu asosida fikr bildirish         | Topshiriq kartochkasidagi yozma fikrlar   | Kichik guruh a'zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdimot etadi. Guruhning yozma bayon etilgan fikrlari o'qib eshittiriladi.                   | Taqdimot                     | 10                  |
| <b>8</b> | Nazorat baholash                     | Doska                                     | Guruh taqdimotlaridan so'ng, har bir bildirilgan fikrlar guruhlar tomonidan o'zaro munozara qilinadi.                                                             | O'zaro baholash munozarasi   | 10                  |
| <b>9</b> | Yakuniy qism                         | Texnologik xarita                         | O'qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlarga yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.                                  | Yakuniy xulosa baholash      | 5                   |

**Tuzuvchi fan o'qituvchisi:**

**Radjabova Fotima**

“Tasdiqlayman”

Kollej direktori

20\_\_ - 20\_\_ o'quv yiliga mo'ljallangan I-bosqich

Rangtasvir guruhi uchun o'qituvchi Radjabova Fotimaning

rangtasvir fanidan tuzgan yillik ish dasturi

| T/r | Bo'lim va mavzularni nomi    |     |          |   | Mashg'ulot tipi va turi | Ko'rgazmali qurollar va texnik vositalar                   | Mustaqil ish turi. Amaliy laboratoriya tadqiqoti      | Uy vazifasi                                  | Adabiyotlar                | Fanlararo bog'lanish | Izox |
|-----|------------------------------|-----|----------|---|-------------------------|------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------|----------------------------------------------|----------------------------|----------------------|------|
| I   | II                           | III | IV       | V | VI                      | VII                                                        | VIII                                                  | IX                                           | X                          | XI                   | XII  |
| 1   | Mutaxassislikka kirish       | №1  | 2.04.13  | 2 | Og'zaki amaliy          | Rangtasvirga oid plakat va slaydlar                        | Rangtasvir fanda oid maktabda olgan bilim ko'nikmalar | Rangtasvirda qo'llaniladigan asbob uskunalar | Xalq amaliy san'ati muzeyi | Umumiy fanlar        |      |
| 2   | Kirish. Rangtasvir asoslari  | №2  | 14.04.13 | 2 | Og'zaki                 | Rangtasvir asoslarini isbotlab beruvchi plakatlar          |                                                       |                                              |                            |                      |      |
| 3   | Rangtasvir turlari           | №3  | 20.04.13 | 2 | Og'zaki                 | Rangtasvir turlariga oid rasmlar                           | Rangtasvir turlarini ish dasturiga yozib borish       |                                              |                            | Adabiyot tarix       |      |
| 4   | Rangtasvirda mazmun va shakl | №4  | 26.04.13 | 2 | Og'zaki                 | Rangtasvirda mazmun va shaklga oid bayonnomalar va rasmlar |                                                       | O'qib kelish                                 | Ch.Axmarov                 | Tarix adabiyot       |      |
| 5   | Rangtasvir janrlari          | №5  | 2.05.13  | 2 | Og'zaki                 | Rangtasvir janrlariga oid rasmlar                          |                                                       |                                              |                            |                      |      |
| 6   | Rangtasvirda manzara janri   | №6  | 8.05.13  | 2 | Og'zaki                 | Mustaqil o'qish                                            | Mustaqil o'qish                                       | A.Usmonov                                    |                            |                      |      |
| 7   | Rangtasvirda manzara ishlash | №7  | 14.05.13 | 2 | Og'zaki                 | Rangtasvir asboblari oid rasm va plakatlar                 |                                                       | Rangtasvir asboblari b/n tanishish           |                            | Rasm                 |      |
| 8   | Dars o'tish xonasida         | №8  | 20.05.13 | 2 | Og'zaki va amali        | Xavfsizlik texnikasi va                                    | Plakatlarni o'rganish                                 |                                              |                            | Fizika ximiya        |      |

|    |                                                                              |     |          |    |         |                                           |                                         |                          |   |               |     |
|----|------------------------------------------------------------------------------|-----|----------|----|---------|-------------------------------------------|-----------------------------------------|--------------------------|---|---------------|-----|
|    | xavfsizlik texnikasi                                                         |     |          |    |         | yong'in xavfsizligiga oid plakatlar       |                                         |                          |   |               |     |
| 9  | Rangtasvirda ishlatiladigan asbob uskunalar mo'yqalamlarni saqlash qoidalari | №9  | 26.05.13 | 2  | Og'zaki | Ma'lum usullardan foydalanish             |                                         |                          |   |               |     |
| I  | II                                                                           | III | IV       | V  | VI      | VII                                       | VIII                                    | IX                       | X | XI            | XII |
| 10 | Rangtasvirda ishlatiladigan moybo'yoq turlari                                | №10 | 1.05.13  | 2  | Og'zaki | Moybo'yoq turlari tasvirlangan slaydlar   | Eng sifatli moybo'yoqni tanlash         | Sifatli moyqalam tanlash |   | Fizika ximiya |     |
| 11 | Rangtasvir eskizlarini qog'ozga chizish                                      | №11 | 7.06.13  | 4  | Og'zaki | Ilyustratsiyalar chizilgan plakatlar      | Eskizlarga bo'yoq tanlash               |                          |   | Ximiya        |     |
| 12 | Rangtasvir san'ati haqida tushuncha berish                                   | №12 | 13.06.13 | 2  | Og'zaki | Memoriy manzaralar tasvirlangan plakatlar |                                         |                          |   | Kompozitsiya  |     |
| 13 | Rangtasvir san'ati haqida tushuncha berish                                   | №13 | 19.06.13 | 4  | Amaliy  |                                           |                                         |                          |   | Mate-matika   |     |
| 14 | Rangtasvirda manzara chizish                                                 | №14 | 25.06.13 | 4  | Amaliy  | Eskizlardan foydalanish                   | Manzara kompozitsiyalarini tushunturish |                          |   | Chizma-chilik |     |
| 15 | Taqdimot                                                                     |     |          | 50 |         |                                           |                                         |                          |   |               |     |

**Tuzuvchi fan o'qituvchisi:**

**Radjabova Fotima**

Samarqand viloyati  
Samarqand shahar Samarqand  
hunarmandchilik kolleji  
Rangtasvir №\_\_\_ guruh  
murabbiysi

“Tasdiqlayman” Kollej  
ma’naviyati va ma’rifat  
ishlari bo’yicha director  
o’rinbosari

Radjaboda Fotimaning 2012-2013 o’quv yilida

bajariladigan ma’naviy va ma’rifiy ishlar rejasi

| № | Bajariladigan tadbirlar                                                                                                                                                           | Bajarish muddati | Izod                                                 |
|---|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------|------------------------------------------------------|
| 1 | Avgust                                                                                                                                                                            | 25.08.12         | Murabbiy                                             |
|   | Dars sinfxonasini davlat ramslari: Prezident portreti, davlat gerbi, davlat bayrog’I davlat tilini va president asarlari bilan jihozlash                                          |                  |                                                      |
| 2 | Sentabr                                                                                                                                                                           | 1.09.12          | Ma’naviyat va ma’rifat bo’yicha director o’rinbosari |
|   | 1-sentabr O’zbekiston Respublikasi Mustaqillik kuniga bag’shlangan tadbirda qatnashish                                                                                            |                  |                                                      |
| 3 | Sentabr                                                                                                                                                                           | 2.09.12          | Direktor o’rinbosari                                 |
|   | Bilim yurtidan kelgan talabalarni, bilim yurtining ichki qonun-qoidalarini bilan tanishtirish                                                                                     |                  |                                                      |
| 4 | Oktabr                                                                                                                                                                            | Doimiy           | Murabbiy                                             |
|   | Rangtasvirda ma’moriy manzara janri haqida suhbat                                                                                                                                 |                  |                                                      |
| 5 | Guruh davomati va o’qish jarayonini tekshirib borish                                                                                                                              |                  |                                                      |
| 6 | Oktabr                                                                                                                                                                            | Doimiy           | Tarix o’qituvchisi                                   |
|   | O’zbekiston Respublikasining Davlat ramziy belgilari haqida talabalarga to’liq ma’lumot berish                                                                                    |                  |                                                      |
| 7 | Dekabr                                                                                                                                                                            | 7.11.12          | Murabbiy. Tarix o’qituvchisi                         |
|   | 8-dekabr O’zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyasi kuni” mavzusida talabalarga ma’ruza o’qish                                                                                 |                  |                                                      |
| 8 | Yanvar                                                                                                                                                                            | 25.01.13         | Murabbiy                                             |
|   | I-yarim yillik yakuni guruhning umumiy va maxsus fanlardan to’plangan joriy oraliq va yakuniy nazorat rayting ballarini ko’rib chiqib, talabalar bilan birgalikda tahlil qilishi. |                  |                                                      |

**Tuzuvchi fan o’qituvchisi:**

**Radjabova Fotima**

# XULOSA

## **Xulosa**

Mana bugun men azaliy orzuyim, ya'ni sanatshunos pedagog bo'lish sari ilk qadam qo'yish arafasida turibman.

Bundan to'rt yil muqaddam men, Samarqand Davlat Arxitektura Qurilish Instatitu Kasbiy ta'lim fakultetining birinchi bosqich talabasi bo'lish baxtiga musharraf bo'lgandim. Bu dargohdagi to'rt yillik tahsilim davomida, ustozlardan bilmaganlarimni o'rganib, ko'nikmalarga ega bo'ldim. Mana shu 4 yil uchun juda mazmunli o'tdi.

Chunki bu vaqt ichida ulg'aydim, dunyoqarashim shakllandi ko'p narsalarni o'rgandim. Musofirchilikda yurib, ota-onam qadrlarini bildim. Endi diplom ishimga keladigan bo'lsak to'rt yil davomida ustozlardan olgan bilim va ko'nikmalarimdan foydalanib, bu o'ta murakkab va mas'uliyatli ishni baxoli qudrat bajarishga harakat qildim.

Albatta diplom ishimni baholash siz azizlarning hukmiga xavola etaman. Men esa fursatdan foydalanib, ustozlarimga, rahbarimga va ular qatori ota-onamga rahmat aytmqchiman, ulardan cheksiz minnatdorman.

# Adabiyotlar

## Adabiyotlar

1. Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. Oripov B. Toshkent.
2. "Rassom-o'qituvchilar tayyorlash muammolari" Oydinov N, Toshkent o'qituvchi nashri 1997-yil.
3. Rangshunoslik Nabiyeu M. Toshkent o'qituvchi nashriyoti 1995-yil.
4. "Rangtasvir" Abdirasulov S, Tolipov N. Toshkent bilim. ChMKXTM 2005-yil.
5. O'zbekiston milliy insiklopediyasi.
6. "Yangicha ishlash va fikrlash davr talabi" Karimov I.A. Toshkent O'zb 1997-yil.
7. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent 1997-y
8. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. Avliyoqulov X.T. Toshkent 2001-y.
9. "Bo'yoqlar bilan ishlash" Egamov Y. Toshkent "o'qituvchi" nashriyoti.
10. WWW. SHAXI-ZINDA. /.../ mail.@ uz
11. WWW. Rangtasvir. SHAXI-ZINDA. /.../ mail.@ uz